

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabrida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 14185,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga o'sdi.


2018 yil yanvar-dekabr oylari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7642,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	mlrd.so'm		2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan % da
	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr	
I. YaHM	10243,0	14185,2	103,4
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9609,9	12951,5	103,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	633,1	1233,7	103,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9609,9	12951,5	103,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2783,7	3733,0	103,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3219,8	4869,1	101,6
sanoat	2596,0	4047,4	100,6
qurilish	623,8	821,7	105,4
Xizmatlar	3606,4	4349,4	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	616,4	755,6	104,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	778,6	898,4	111,7
boshqa xizmat tarmoqlari	2211,4	2695,4	103,3

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining o'sish sur'ati – 103,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi 28,8 %), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 101,6 % (37,6 %), qurilish – 105,4 % (6,3 %) hamda xizmatlar tarmog'i – 105,3 % (33,6 %).

2018 yil yanvar-dekabrda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 91,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlarning esa, 8,7 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,2 % punktga kamaydi va hisobot davrida 28,8 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmog`ining ulushi 4,1 % punktga oshdi va 37,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 33,6 % ni tashkil etdi va 2017 yil mos davri (37,5 %) bilan tasdiqlanganda 3,9 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar-dekabr



2018 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni ko`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,8 % ni (2017 y. yanvar-dekabr – 6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,9 % ni (8,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,9 % ni (23,0 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

**2017 yil
yanvar-dekabr**



**2018 yil
yanvar-dekabr**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma
axborot-tahliliy ishlar bo'limi**

Tel.: (0-361) 222-74-58;

(0-371) 230-82-03